



## OROL VA TURIZM: YO'QOTILGAN IMKONIYATLARI

Boliqulova Ma'mura Azizjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili fakulteti 1-bosqich talabasi

Orol dengizining qurishi XX asrning eng katta ekologik fojialaridan biri sifatida tarixga kirdi. Ushbu fojia nafaqat ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi, balki barcha tirik jon: o'simliklar va hayvonot olamiga, shuningdek, aholining turmush tarziga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bizga ma'lumki, dunyodagi barcha tabiiy resurslar biz uchun qimmatli va o'zining xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Lekin shunday hodisalar ham bo'ladiki, ba'zi bir odamlarning ekologiyaga ta'siri, ularni ifloslantirishi va har xil chiqindilar orqali havoni zararlashi ham real hayotda yo'q emas, albatta. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu dengizning imkoniyatlari, barqarorligi va tabiiylici bor edi, shu orqali insonlar o'z kasbini hamda tirikchiligini yaratgan. Qachonlardir Orol dengizi ham ulkan va sersuv bo'lgan, bundan atigi 60-70 yil ilgari, XX asrning 50-yillarida Qozog'iston va O'zbekiston hududlarida joylashgan mazkur suv havzasining hajmi 68 ming kvadrat kilometrni tashkil etganligi aynan shuning isbotidir. Biroq bu hudud hozirgi vaqtida o'ziga xos, ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan, odamlarni e'tiborini qozongan, turistik o'lkaga aylanmoqda hamda ekoturizm, ekstremal sayohatlar, tarixiy ekspeditsiyalar va ilmiy tadqiqotlar insonlarni ushbu so'lim o'lkaga tashrif buyuruvchi sayyoohlarni o'ziga jalgilmoqda. Har bir yomon ishning hayrli tomoni bo'lganidek, ushbu qiyinchiliklar orqali o'tmishni anglab, tabiatni muhofaza qilish orqali xatolarni takrorlamay, yangi kelajak qurish uchun yaxshi tomonlarini ham o'ylab topish va uni amalda qo'llash kerak. Zeroki, hayot shu qadamda to'xtab qolmaydi. Toki inson tirik ekan, hamisha yashash uchun yashnatish uchun kurashmog'i darkor. Shuningdek, Orol dengizini rivojlantirishdagi, yangi joylar yaratishdagi imkoniyatlarni yuqoridaq ko'nikmalar yordamida bir nechta ko'rinishlarni o'rganamiz.

### 1. Mo'ynoq tumanini turizm markaziga aylantirish ishlari:

O'tgan asrning 60-yillaridan qurishni boshlagan dengiz muammosiga sekinlik ila yechim topilmoqda, lekin butunlay hal etilgan emas. Hozirgi tashabbuslar asosan Orolbo'yи hududlarida yashovchi xalqlar xavfsizligini ta'minlash, ekologik fojia oqibatlarining inson hayotiga ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017-yil 28-fevralda imzolangan qaroriga muvofiq, Mo'ynoq tumanini turizm markazlaridan biriga aylantirish va uni yanada rivojlantirish rejalashtirilgan. Ushbu qarorda quyidagi tadbirlar nazarda tutilgan: "Moynaq City Center" savdo-turizm kompleksini tashkil etish va Orol dengizining qirg'oqlari bo'ylab sayohatlar, Orol dengizining mineral balchiqlari bilan davolash, sertuzli vannalarni qabul qilish kabi turistik xizmatlarni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari aynan shu makonda elektrotexnika, qurilish materiallari, sanoat



ishlari, suv nasos va quvurlari, tikuvchilik, to'qimachilik va shunga oid boshqa zamonaviy mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha "Mo'ynoq" kichik sanoat korxonasini barpo etish ham rejalashtirilgan. "O'lakashunoslik" muzeyini qayta rekonstruksiya, ya'ni avval mavjud bo'lgan binoni qayta tiklash yoki zamonaviylashtirish va zamonaviy 3D texnologiyalar bilan jihozlash orqali dengiz haqidagi tarixiy fotosuratlar va videoyozuvlarni namoyish etish. Bu, albatta, yosh tabiatsevar sayohatchilarimiz uchun juda foydali va manfaatli bo'ladi vas hu qo'llanmalar asosida ko'plab innovatsion bilimlarga ega bo'ladi. "Orol va Mo'ynoqning qayta tiklanishi" mavzusida har yili xalqaro ekofestival o'tkazish. Ushbu festival orqali ko'plab insonlarni jalb qilish va Orolning tiklanishi, qayta rivojlanishi uchun o'z hissalarini qo'shishga imkoniyat yaratib berish.

Orol dengizining qurib qolgan hududidagi kemalarni qayta tiklash va ularga turistik qiziqish yuqori bo'lgan mamlakatlar nomlarini berish. Aynan Markaziy Osiyo ko'plab dengizga ega bo'limganligi sababli, suv yuzasi va suvosti zamonaviy texnikalariga qiziqish ham yuqori. Aynan shuning uchun, ta'mirga muxtoj bo'lgan qayiq va kemalarni qayta tuzatish yoki ularni qayta yasash samarali usullardan biri hisoblanadi. Shuningdek, u yerda marafon va qiziqarli, shartli o'yinlar tashkil etish orqali obodonlashtirishni rivojlantirish, ko'kalamzorlashtirish hamda ijtimoiy islohotlarning ham yo'lga qo'yilishi nafaqat atrof-muhit, balki orolda istiqomat qiluvchi ko'chmanchi chorvadorlar, biz uchun qadrli bo'lgan o'simliklar dunyosi va hayvonot olami uchun ham zarurdir. Mazkur ilgari surilgan g'oyalari o'z isbotini ham topmoqda. Ushbu tashabbuslar Orol dengizi hududida turizmni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Orolni qayta tiklash uchun ushbu g'oya va yo'nalishlar qurib qolgan dengizni dinamik va qiziqarli usulni taklif qiladi, bu insonlarni ishiga mas'uliyatlilik va yanada o'z harakatlariga joziba va ishtiyoq qo'shish va o'z kindik qoni to'kilgan yurt uchun o'z hissasini va foydasini samarali tarzda qo'shish imkonini beradi.

## 2.Yangi turistik obyektlarning ochilishi:

Orol dengizining kam qismi suvdan iborat bo'lganligi sababli, unda oz bo'lsa-da, suv saqlanib qolgan qismida yangi turistik obyektlar ochilmoqda. Hayotning hamisha rangli tomonini, yaxshiliklarini ko'ra olgan inson o'z hayatida o'z o'rniiga ega va jamiyatda o'zligini anglagan yetuk komil shaxs hisoblanadi. Aynan tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, barcha islohotlar amalga oshirilmoqda, lekin avvalgi holatiga qaytish biroz imkonsizdek go'yo. Hozirgi zamonaviy yetuk davlatlardan tashrif buyurayotgan sayyoh hamda turistlar ushbu manzilni ko'rish va tajribalar olish uchun shu manzilga tashrif buyurmoqdalar va ular uchun barcha maxsus sharoitlar ham yaratilgan. Orol dengizining tarixiy merosi, tarixda qolgan ko'rinishi va yodgorliklari ham sayyohlar uchun qiziqarli bo'lishi tabiiy hol.

Ekstremal sayohatlarni sevadigan insonlar uchun Mo'ynoq tumanida "Kemalar qabristoni" yaratildi. Ushbu maskan Orol dengizining yo'qolishining ramz timsoliga ham aylangan va shu xususiyati sababli sayyohlarni yuragidan joy oladi va



hayratlantiradi. Chet eldan kelgan, moziyni sevib o'qiydigan odamlar Qoraqalpog'istonning aynan ushbu manziliga kelmay ketmaydi. Bundan tashqari, u yerda istiqomat qiluvchi xalqning madaniyati, turmush-tarzi, tarixiy yodgorliklari va an'analari ham e'tibordan chetda qolmaydi, albatta. Har bir mamlakatning o'z urf-odatlari, maxsus liboslari va do'ppisi bo'lganidek, qoraqalpoq xalqining o'z uslubiga ega bo'lgan, ranglar uyg'unligi go'zal bo'lgan do'ppi va milliy liboslari ham touristlarning hayratiga sazovor bo'lgan.

Ularning madaniyatidan tashqari, baliqchilik ishlari ham sezilarli darajada qiziqtirgan. Sobiq baliqchilik qishloqlarida baliqchilik bilan shug'ullangan o'troq xalq aholisi hozirda judayam mashhur va ular yashagan hududlar hozirgi paytda tashlandiq hududga aylangan bo'lsa-da, ularning tarixi sayohatchilarni qiziqtiradi.

Orol dengiziga oid muzeylar- Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq va Nukus shaharlarida Orol dengizingin tarixiga bag'ishlangan muzeylar va tarixiy obidalar ham tashkil etilgan. Bu ishdan maqsad, xalqning tarixiga muhabbatini oshirish, shuningdek, boshqa xalq vakillarini o'z madaniyatiga jalb etish.

### **3. Ekstremal turizm va sarguzasht izlovchilar uchun joy va mashg'ulotlar.**

Aynan turistlar uchun maxsus jozibali maskanlar va intellektual o'yinlar ham tashkil etilgan. Jumladan: Off-road safarlari, trekking va piyoda sayohatlar, qiziqarli o'yinlar, chodirli dam olish va shu kabi mashhur mashg'ulotlar.

Off-road safarlari- Mamlakatning Orolqum cho'li bo'yab sayohat qilish mavjud, aynan ushbu sayohatda maxsus katta mashinalar yordamida ushbu cho'lning qumli yo'llarida adrenalin tarzda sayohat qilish ishlari yo'lga qo'yilgan. Off road so'zi ham ingliz tilidan olingan bo'lib, yo'ldagi safar ma'nosini anglatadi.

Trekking va piyoda sayohatlar- ushbu mashg'ulot off-road safariga zid bo'lgan holda, mashinada emas, balki inson o'z oyog'i yordamida ko'plab masofaga sayohat qilishi kerak. Orolbo'yi tog'lari va qir-adirlarida yurish, tarixiy joylarni, obidalarni ziyyarat qilish bu sarguzashtning asosiy xususiyati demakdir.

Chodirli dam olish- Ushbu mashg'ulot insonga yanada zavq va energiya beradigan, insonni muammo va qiyinchiliklardan yiroq tutgan holda, ko'ngil xotirjamligiga ega qiladigan, barcha g'am-g'ussalarni unuttiradigan, xalqning eng sevimli kunlik ijodiga aylangan mazkur ishda insonlar Orolbo'yi hududlarining tabiatini o'z ko'zi bilan ko'rib, tungi osmon ostida yulduz bilan birga do'stlar davrasida dam olish va yoz kunlarida, kechasi osmon ostida tunash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu mashg'ulot turi real hayotda kimga yoqmaydi deysiz?!

Orolqum cho'li- Sobiq kichik dengiz tubida hosil bo'lgan keng qumli hudud hisoblanadi, unda turistlar cho'l landshaftlarini, o'simliklarini tamosha qilishlari va sahroni yana chuqurroq o'rganischlari, tajribalar orttirishlari mumkin. Bu imkoniyat faqatgina Orolqum cho'lidagina topiladi, shu orqali ular o'z bilimlarini oshiradi va tajribali sayohatchi, o'z kasbining ustasi bo'lib chiqa oladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir ishning xayrli tomoni bo'lganidek, bundan ham yaxshilikni ko'rish lozim, zeroki bu achchiq haqiqat bo'lsa-da. Lekin barcha



ko'ngilliksizliklarga qaramay boshqa davlatlarning yordami va hali hamon qiziqish bildirishdan to'xtamayotgan xalqning harakatlari mukofotga loyiq. Zero, Orol dengizi nafaqat O'rta Osiyoning, balki butun dunyodagi eng global muammolardandir. Kundan kunga hozirgi paytda yo'qolgan dengizning imkoniyatlari yanada kengaymoqda va o'z qadriyatlariga ega bo'lmoqda. "Ilojsiz ishning o'zi yo'q" deganlaridek, barcha ishning iloji bordir. Toki inson nafas olib yashar ekan, barcha imkoniyatlarni qo'llay oladi, qo'ldan kelgancha barcha orzulariga erisha oladi. Olimlarning fikriga qaraganda, davlat prezidentlari ham aytib o'tganidek, Orol dengizini tiklashning ham iloji bor, buning uchun barcha davlatlarning ahilligi hamda yagona kuch asosida birlashib ish ko'rishlari talab etiladi. Ayrim tadqiqotlarda keltirilganidek, keyingi 10 yil mobaynida xalqlarning birlashishi va birga ko'plab islohot qilishi natijasida Orol dengizining qayta tiklanish va o'z holiga qaytish taxminlari qayd etildi. Zeroki, dunyoda bo'lib o'tayotgan xoh har bir global muammo bo'lsinmi, xoh urush bo'sinmi, bari har bir jamiyat uchun ahamiyatli va o'rinnlidir. Chunki inson hayotda bir marta dunyoga keladi, aynan shu 5kunlik qisqa umri davomida uni mazmunli va foydali, barchaga yordam berib o'tkazish har bir yosh-u qarining burchi hamda vazifasi demakdir!!!

